

POLIZ EKINLARI KASALLIKLARINING OLDINI OLISH USULLARI.

Xo'jaqulova Madina Komil qizi

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish inistituti talabasi

Annotatsiya: O'zbekistonning iqlim sharoiti sabzavot, poliz ekinlari va mevali daraxtlarni yetishtirish uchun qulay hisoblanadi. Hozirgi kunda sabzavot ekinlaridan sabzi, kartoshka, piyoz, karam, pomidor, qalamir, bodring kabi sabzavotlar ham dala sharoitida, ham issiqxona sharoitida o'stiriladi. Ushbu maqolada respublikamizda ekiladigan sabzi, karam, kartoshka va pomidor kabi sabzavotlarning kasalliklari va ularga qarshi kurash yo'llari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Poliz ekinlari, un-shudring, fomez kasalligi, *Alternaria radicina*, bakterioz.

Poliz ekinlari - oziq-ovqat, yem-xashak va texnika maqsadlarida ekiladigan, palak otib o'sadigan madaniy ekinlar guruhi. Ayrim olimlar Poliz ekinlariga faqat tarvuz, kovun va qovoqnn kiritadilar; chirmashib yoki yerda yotib usadi. Osiyo, Afrika va Amerikaning tropik va subtropik mamlakatlaridan tarqalgan. Hozirgi davrda barcha qit'alarda ekiladi. O'rta Osiyo, Zakavkazye, Ukraina, AQSH, Bolgariya, Ispaniyada ko'p yetishtiriladi. Poliz ekinlari mevasi parhez xususiyatiga ega qimmatli oziq-ovqat mahsuloti; chorva mollariga ozuqa sifatida beriladi. Urug'idan yog' olinadi. Poliz ekinlari maysalari chirishini gifomitsetlar *Fusarium equisetii*, *Fusarium spp.*, *Rhizoctonia solani*, *Thielaviopsis basicola* va oomitset *Pythium spp.*, qo'zg'atadi. Kasallik poliz ekinlarini ochiq dala va issiqxonalarda zararlaydi va u dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda ham keng tarqalgan.

Poliz ekinlari issiqsevar bo'lgani uchun ular past haroratda zaiflashib, kasalliklarga chidamliligi keskin pasayadi. Issiqxonalarda tuproq harorati keskin o'zgarib turishi va 21°C dan past (14-16°C) bo'lishi, sovuq (9-11°C) suv bilan sug'orish, urug'ni fungitsid bilan dorilamasdan chuqur ekish, bodring urug'i unmasdan yoki urug' barg tuproq yuzasiga chiqmasdan chirib ketishining asosiy sabablaridir. Bu sabablar, hamda azotli o'g'itni keragidan ortiqcha berish, ob-havoning keskin o'zgarishlari, havo namligi yuqori bo'lishi, havo almashinuvi yetarli bo'lmasligi va qatqaloq, unib chiqqan urug' barg va yosh o'simliklar xira-yashil tus olishi, ildiz bo'g'zida va poyada qaynoq suvda kuyganga o'xshash rangsiz, so'ngra qo'ng'ir dog'lar rivojlanishi, ildiz bo'g'zi ingichkalashishi, qo'ng'ir tus olishi va

chirishi, natijada o'simlik yotib qolishi va so'lishiga olib keladi. Oxirgi yillarda unshudring kasalliklarining areali kengayib, donli, yem xashak, mevali, rezovor mevali, sabzavotpoliz ekinlarida xamda mevali va manzarali o'simliklarda keng tarqalmoqda. Unshudring O'zbekistonda (va umuman Markaziy Osiyoda) qovun, tarvuz va qovoqdoshlar oilasiga mansub bo'lgan boshqa ekinlarning eng keng tarqalgan va xavfli kasalliklaridir. Ular bilan o'simliklar o'suv davrining barcha fazalarida zararlanadi.

Sabzi soyabonguldoshlar oilasiga mansub ildiz mevali o'simlik bo'lib, unda turli bakterial va zamburug' kasalliklari mavjud bo'li, u hosildorlikka zararli ta'sir ko'rsatadi. Sabzining fomez kasalligi. Bu kasallikni Takomillashmagan zamburug'lar sinfi, Piknidiyalilar turkumining vakili Phoma rostrupii turi keltirib chiqaradi. Kasallik ildizmevalarni saqlash jarayonida chirishi yoki quruq chirishi, urug' ko'chatlarning qurib qolishi shaklida namoyon bo'ladi. Kasallik belgilari barg bandi va tomirida cho'zinchoq oq-jigarrang dogiar tarzida namoyon bo'ladi. Kasallik barglardan ildizmevaga o'tib, uning ildiz bo'g'zining chirishiga sabab bo'ladi.

Ildizmevalarning chirishi ularni omborxonalarda saqlash davrida jigarrang dog'lar tarzida namoyon bo'ladi. Bu dog'larning osti quruq bo'lib, usti zamburug'ning oq mitseliy mog'ori bilan qoplanadi. Mitseliydan qish o'rtalarida piknidiyalalar pay do bo'ladi. Kasallangan ildizmevalar ekilganda, o'simlik qurib qoladi yoki urugiarning yalpi kasallanishi kuzatiladi va rang doglar paydo bo'ladi. Bu dog'lar atrofida yopishqoq modda hosil bo'lib, keyinchalik zararlangan joylar qurib qoladi, usti qora rangdagi piknidiyalalar bilan qoplanadi. Piknidiyalardagi sporalar yordamida boshqa o'simliklar kasallanadi. Kasallangan ildizmeva, o'simliklar qoldig'i va urugiar fomez kasalligi infeksiyasining tarqalish manbayi hisoblanadi.

Kasallikka qarshi kurash olib borish uchun yerga fosforli va kaliyli o'g'itlar solish, sog'lom o'simliklardan urug'lik tayyorlash, ekishdan oldin ularga fungitsidlar bilan yoki 15-20 minut davomida 52-53°C haroratda ishlov herish kerak. Almashlab ekish qoidalariga amal qilish va omborxonalami yaxshilab dezinfeksiyalash, ildizmevalami saralash, bino haroratini 1-2°C, namligini 85-90% miqdorda saqlash kerak. Alternarioz, ya'ni qora chirish. Kasallik qo'zg'atuvchi Takomillashmagan zamburug'lar sinfi, Gifomitsetlar tartibi, Alternaria radicina turiga mansub zamburug' hisoblanadi. Kasallik ildizmevalar yuzasini chiritib, quruq chirish kasalligini keltirib chiqaradi. Kasallangan ildizmevaning har joy-har joyida qora yoki qo'ng'ir rangdagi

botiq dog'lar paydo bo'ladi. Kasallikka qarshi kurash choralari fomoz kasalliginiki bilan bir xil.

Bakterioz. Kasallikni *Erwinia carotovora* bakteriyasi keltirib chiqaradi. Bu kasallik sabzini birinchi va ikkinchi yilda kasallantirishi mumkin. Kasallikning dastlabki belgilari pastki yarusda joylashgan barglarda namoyon bo'lib, barglar yuzasida sariq dog'lar muntazam yiriklashib, qo'ng'ir rangga kiradi. Dog'lar atrofi sariq halqa bilan o'raladi. Urug'lik o'simliklaming barglaridan tashqari, poyasi va soyabonlari ham kasallanadi. Poyada uzun to'q qo'ng'ir rangdagi suvli dog'lar paydo bo'ladi Alternarioz, ya'ni qora chirish. Kasallik qo'zg'atuvchi Takomillashmagan zamburug'lar sinfi, Gifomitsetlar tartibi, *Alternaria radicina* turiga mansub zamburug' hisoblanadi. Kasallik ildizmevalar yuzasini chiritib, quruq chirish kasalligini keltirib chiqaradi. Kasallangan ildizmevaning har joy-har joyida qora yoki qo'ng'ir rangdagi botiq dog'lar paydo bo'ladi. Ildizmevani ko'ndalang kesilganda asosiy parenxima qo'rayib ko'rinadi. Bunday ildizmevalar urugiik uchun ekilganda, gullaguncha qurib qoladi. Alternarioz bilan kasallangan o'simliklar birinchi yili kam miqdorda bo'lib, barglari sarg'ayadi va qurib qoladi. Kasallik nam havo sharoitida ko'p tarqaladi. Urug'lik, ildiz meva va o'simliklar qoldig'i kasallikning tarqalish manbayi hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.T.Abdukarimov. Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi. Toshkent. 2002
2. D.T.Abdukarimov, T.E.Ostonaqulov va boshq. Seleksiya va urug'chilik praktikumi. Samarqand 1993.
- 3.I.Uzoqov, G'.Qurbanov "Urug'chilik va urug'shunoslik". T. Mexnat. 2000 y.
- 4.Bo'riyev X.Ch. Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi. Toshkent, "Mehnat", 1999 y.